

QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUV STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Magistratura” bo‘limi boshlig‘i

i.f.f.d (PhD)., v.b.dotsent

E-mail: jonibekfayzullayev119@gmail.com

ORCID:0009-0005-4475-6787

Annotatsiya

Mazkur maqolada qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion boshqaruv strategiyasini shakllantirishning nazariy jihatlari ilmiy asoslandi. Tadqiqotda strategik menejment, innovatsion rivojlanish, raqamli transformatsiya, inson kapitali, ekologik barqarorlik va institutsional omillarning o‘zaro bog‘liqligi tizimli ravishda tahlil qilindi. Innovatsion salohiyatni baholash, tashqi va ichki muhitni o‘rganish hamda strategiyani bosqichma-bosqich shakllantirish bo‘yicha nazariy yondashuv taklif etildi. Olingan natijalar korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, innovatsion loyihalarni rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Taklif etilgan yondashuv sanoat korxonalarida zamonaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun ishonchli ilmiy asos yaratdi.

Kalit so‘zlar: innovatsion boshqaruv, strategiya, qurilish materiallari, raqamli transformatsiya, innovatsion salohiyat, Industry 4.0, inson kapitali, raqobatbardoshlik.

Аннотация

В статье были научно обоснованы теоретические аспекты формирования инновационной стратегии управления на предприятиях по производству строительных материалов. В исследовании были системно рассмотрены стратегический менеджмент, инновационное развитие, цифровая трансформация, человеческий капитал, экологическая устойчивость и институциональные факторы. Был предложен теоретический подход к оценке инновационного потенциала, анализу внутренней и внешней среды, а также поэтапному формированию инновационной стратегии. Полученные результаты подтвердили возможности повышения конкурентоспособности предприятий, роста эффективности производства, развития инновационных проектов и расширения применения цифровых технологий. Предложенный подход создал надёжную научную основу для совершенствования современных систем управления в промышленности.

Ключевые слова: инновационное управление, стратегия, строительные материалы, цифровая трансформация, инновационный потенциал, Industry 4.0, человеческий капитал, конкурентоспособность.

Abstract

This article scientifically substantiated the theoretical aspects of developing an innovation management strategy for construction materials manufacturing enterprises.

The study systematically examined strategic management, innovation-driven development, digital transformation, human capital, environmental sustainability, and institutional factors influencing enterprise performance. A theoretical framework was proposed for assessing innovation potential, analyzing internal and external environments, and implementing innovation strategies through a structured multi-stage process. The findings demonstrated opportunities to improve enterprise competitiveness, enhance production efficiency, promote innovative projects, and accelerate the adoption of digital technologies. The proposed approach also provided a reliable scientific foundation for strengthening modern management systems and supporting the sustainable development of construction materials manufacturing enterprises.

Keywords: innovation management, strategy, construction materials, digital transformation, innovation potential, Industry 4.0, human capital, competitiveness.

KIRISH

Jahon amaliyotida innovatsiyalar iqtisodiy oʻsishning asosiy drayverlaridan biri sifatida eʼtirof etilmoqda. Ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasida sunʼiy intellekt, raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish, robototexnika, katta maʼlumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar, Internet buyumlari (IoT) va kiberfizik tizimlar sanoat korxonalari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu esa korxonalarda anʼanaviy boshqaruv usullarini qayta koʻrib chiqish, innovatsion boshqaruv strategiyalarini shakllantirish va raqobat muhitiga tez moslasha oladigan boshqaruv modellarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Qurilish materiallari sanoati mamlakat iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlaridan biri hisoblanib, qurilish industriyasi, transport infratuzilmasi, sanoat obyektlari, ijtimoiy sohalar va uy-joy qurilishi uchun asosiy resurslarni yetkazib beradi. Mazkur tarmoqning barqaror faoliyat yuritishi qurilish sohasining rivojlanishi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, mamlakat iqtisodiy oʻsishi, aholi farovonligi va investitsiya faolligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shu jihatdan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, yuqori qoʻshimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish, import oʻrnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar turini kengaytirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasida soʻnggi yillarda sanoatni jadal rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion iqtisodiyotga oʻtish boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan qurilish materiallari sanoatini qoʻllab-quvvatlash, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar belgilangan. Bu jarayonlar sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar oldiga innovatsion boshqaruv tizimini takomillashtirish, strategik rejalashtirish mexanizmlarini qayta koʻrib chiqish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish vazifalarini qoʻymoqda.

Qurilish materiallari sanoati mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlararo aloqalarini ta'minlovchi bazaviy sohalardan biri hisoblanadi. Mazkur tarmoq faoliyati qurilish industriyasi, transport infratuzilmasi, sanoat obyektlari, energetika, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy sohalar va shaharsozlik jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Qurilish materiallariga bo'lgan talab mamlakatda amalga oshirilayotgan investitsiya dasturlari, aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya jarayonlari va infratuzilmani kengaytirish sur'atlari bilan bevosita belgilanadi. Shu sababli ushbu tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va innovatsion rivojlanishni ta'minlash milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon qurilish materiallari sanoatida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Energiya tejamkor mahsulotlar ishlab chiqarish, uglerod chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish, sanoat chiqindilarini qayta ishlash, raqamli ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish va intellektual boshqaruv tizimlarini shakllantirish sohaning asosiy rivojlanish tendensiyalariga aylandi. Bunday sharoitda korxonalarning raqobatbardoshligi faqat ishlab chiqarish quvvatlari yoki moliyaviy imkoniyatlari bilan emas, balki innovatsion boshqaruv tizimining samaradorligi bilan ham belgilanmoqda.

Bundan tashqari, tashqi iqtisodiy muhitda yuz berayotgan beqarorlik, xalqaro bozorlarda xomashyo va energiya resurslari narxlarining o'zgaruvchanligi, ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar, logistika xarajatlarining ortishi va tashqi bozorlarda raqobatning kuchayishi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalardan xavf-xatarlarni oldindan baholay oladigan va ularga tezkor moslasha oladigan strategik boshqaruv tizimini shakllantirishni talab etadi. Bu vazifalarni samarali hal etish innovatsion yondashuvlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bilan bevosita bog'liq.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion boshqaruv strategiyasini shakllantirish masalasi iqtisodiyot, strategik menejment, innovatsion menejment, sanoat iqtisodiyoti va korporativ boshqaruv sohaları kesishmasida shakllangan kompleks ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Shu bois mazkur mavzuga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish innovatsion rivojlanish nazariyasi, strategik boshqaruv konsepsiyalari, innovatsion ekotizimlar, ochiq innovatsiyalar, dinamik qobiliyatlar, bilimlar menejmenti va raqobat ustunliklari nazariyalari nuqtai nazaridan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xorijiy olimlar tomonidan innovatsion boshqaruv strategiyasini shakllantirish masalalari korxonalarning barqaror raqobatbardoshligini ta'minlash nuqtai nazaridan keng tadqiq etilgan. Biroq mazkur tadqiqotlarning aksariyati yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlari, mashinasozlik yoki axborot-kommunikatsiya sohaları misolida olib borilgan bo'lib, qurilish materiallari sanoati kabi yuqori energiya talab qiluvchi ishlab chiqarish tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlari yetarlicha hisobga olinmagan.

Xorijiy olimlar orasida innovatsion strategiyaning institutsional va iqtisodiy jihatlarini chuqur tahlil qilgan olimlardan biri Christopher Freeman hisoblanadi. U milliy innovatsion tizim konsepsiyasini rivojlantirib, innovatsiyalar samaradorligi

alohida korxonaning faoliyatiga emas, balki davlat, ilm-fan, ta'lim muassasalari va biznes subyektlari o'rtasidagi institutsional hamkorlik darajasiga bog'liq ekanligini asoslab bergan. Freemanning fikricha, innovatsion strategiyani ishlab chiqishda tashqi innovatsion muhitni baholash ichki resurslarni tahlil qilish kabi muhim ahamiyatga ega.[1] Biroq uning tadqiqotlarida tarmoq darajasidagi ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik xususiyatlari hamda energiya samaradorligi omillari yetarlicha yoritilmagan. Qurilish materiallari sanoati uchun esa mazkur omillar strategik qararlarni qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bengt-Ake Lundvall milliy innovatsion tizim nazariyasini yanada rivojlantirib, innovatsiyalar jarayonini bilimlarni yaratish va tarqatish bilan bog'liq uzluksiz jarayon sifatida izohlaydi. Olim innovatsion faoliyatda «learning by doing», «learning by using» va «learning by interacting» tamoyillarini asoslab bergan. Ushbu yondashuv qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik tajribalarni yig'ish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish muhimligini ko'rsatadi.[2] Biroq Lundvall modeli innovatsion jarayonlarning iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlarini aniq ifodalamaydi.

Richard R. Nelson innovatsion rivojlanishni iqtisodiy institutlar va texnologik taraqqiyot bilan bog'liq holda tadqiq qilgan. U innovatsiyalar samaradorligi mamlakatning institutsional muhitiga, innovatsion infratuzilmaning rivojlanganlik darajasiga va davlat siyosatiga bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi.[3] Nelsonning yondashuvi O'zbekiston qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni tashkil qilish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq mazkur yondashuv korxona darajasida innovatsion boshqaruv strategiyasini shakllantirish mexanizmlarini to'liq ochib bermaydi.

Innovatsion boshqaruvning zamonaviy konsepsiyalaridan biri bo'lgan ochiq innovatsiyalar nazariyasi Henry Chesbrough tomonidan ishlab chiqilgan. Olimning fikricha, zamonaviy korxona innovatsiyalarni faqat o'z ichki resurslari hisobidan emas, balki universitetlar, tadqiqot markazlari, startaplar, investorlar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik asosida rivojlantirishi lozim. Ushbu yondashuv qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun ham dolzarb bo'lib, yangi materiallar, energiya tejovchi texnologiyalar va ekologik innovatsiyalarni yaratishda tashqi hamkorlikning ahamiyatini oshiradi.[4] Shu bilan birga, Chesbrough tadqiqotlarida an'anaviy sanoat tarmoqlarida ochiq innovatsiyalarni joriy etishda yuzaga keladigan institutsional cheklolar kam yoritilgan.

Innovatsion boshqaruvning yana bir muhim jihatini bilimlar menejmenti bilan bog'liq bo'lib, Ikujiro Nonaka va Hirotaka Takeuchi tashkilotlarda bilimlarni yaratish nazariyasini ishlab chiqqan. Olimlar innovatsion faoliyatning asosiy manbai sifatida inson kapitali va korporativ bilimlarni ko'radi. Ularning SECI modeli (Socialization, Externalization, Combination, Internalization) qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik bilimlarni saqlash va tarqatish tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.[5] Biroq mazkur model ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini miqdoriy baholash imkonini bermaydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishi va strategik boshqaruvi bo'yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

S.S. G'ulomov innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi, raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruvni takomillashtirish hamda sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanish mexanizmlarini tadqiq qilgan.[6] Olim innovatsiyalarning milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga ta'sirini chuqur tahlil qilgan bo'lsa-da, qurilish materiallari sanoati korxonalarining tarmoq xususiyatlari alohida tadqiq etilmagan.

Q.X. Abdurahmonov inson kapitali, mehnat resurslari va innovatsion iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilgan. Uning fikricha, innovatsion rivojlanishning asosiy sharti yuqori malakali kadrlar tayyorlash hisoblanadi. Bu yondashuv qurilish materiallari sanoati uchun muhim bo'lsa-da, innovatsion boshqaruvning texnologik va moliyaviy jihatlari kamroq yoritilgan.[7]

Yana bir muhim tendensiya sifatida ESG (Environmental, Social and Governance) tamoyillarini innovatsion boshqaruv strategiyasiga integratsiya qilish masalasi shakllanmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda raqamli transformatsiya va «yashil innovatsiyalar»ning korporativ barqarorlikka ta'siri yuqori baholanadi.[8] Biroq qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun ESG ko'rsatkichlarini strategik boshqaruv samaradorligi bilan bog'laydigan aniq baholash modellari hali to'liq shakllanmagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda innovatsion boshqaruv strategiyasining alohida elementlari keng yoritilgan bo'lsa-da, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun innovatsion boshqaruv strategiyasini shakllantirishning yagona nazariy-uslubiy modeli hali shakllantirilmagan.

Shu sababli qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning texnologik, iqtisodiy va institutsional xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion boshqaruv strategiyasini shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish hamda uning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish ushbu tadqiqotning asosiy ilmiy yo'nalishi hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion boshqaruv strategiyasini shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini strategik menejment, innovatsion rivojlanish, resurslarga asoslangan yondashuv (Resource-Based View), dinamik qobiliyatlar (Dynamic Capabilities) hamda ochiq innovatsiyalar konsepsiyalari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil, monografik kuzatish hamda guruhlash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va soha bo'yicha mavjud nazariy manbalar tanqidiy tahlil qilindi. Korxonalarning tashqi va ichki muhiti, innovatsion salohiyati, raqamli transformatsiya darajasi, inson kapitali hamda institutsional omillar o'zaro bog'liqlikda baholandi. Olingan natijalar asosida innovatsion boshqaruv strategiyasini bosqichma-bosqich shakllantirishning nazariy modeli ishlab chiqildi hamda korxonalar

raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va barqaror sanoat taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va qurilish sohasida raqobatning kuchayishi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalardan innovatsion boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etmoqda. Innovatsion boshqaruv nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etish, balki korxonaning butun boshqaruv tizimini strategik maqsadlarga muvofiq qayta tashkil qilish jarayonini ham o'z ichiga oladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'ida innovatsion rivojlanishga ta'sir qiluvchi omillar to'rtta yirik guruhga ajratiladi:

1-jadval

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar¹

Omillar guruhi	Asosiy elementlar	Korxona faoliyatiga ta'siri
Iqtisodiy	Investitsiyalar, kreditlar, tannarx, inflyatsiya	Ishlab chiqarish samaradorligi
Texnologik	Industry 4.0, avtomatlashtirish, AI, IoT	Mahsulot sifati va mehnat unumdorligi
Institutsional	Davlat siyosati, soliq imtiyozlari, innovatsion infratuzilma	Innovatsiyalarni joriy etish tezligi
Ijtimoiy	Kadrlar, innovatsion madaniyat, bilimlar menejmenti	Innovatsion faollik darajasi

1-jadvalda innovatsion boshqaruv strategiyasi tushunchasiga nisbatan xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlari tizimlashtirildi hamda ularning afzal va cheklangan jihatlari qiyosiy tahlil qilindi. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, innovatsion boshqaruv strategiyasi iqtisodiy adabiyotlarda yagona mazmunda talqin etilmaydi. Aksincha, har bir olim mazkur tushunchani o'z tadqiqot obyekti va ilmiy maktabi nuqtai nazaridan izohlaydi.

Jadvalda keltirilgan olimlarning yondashuvlarini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, ularning har biri innovatsion boshqaruv strategiyasining muayyan jihatlari asoslagan bo'lsa-da, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning texnologik, iqtisodiy, ekologik va raqamli rivojlanish xususiyatlarini kompleks tarzda qamrab olgan ta'rif mavjud emas.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion boshqaruv strategiyasi tashqi va ichki muhit tahlilidan boshlanib, innovatsion salohiyatni baholash orqali strategik qarorlarni qabul qilish bilan yakunlanadi.

Keyingi bosqichda korxonaning ichki muhiti tahlil qilinadi. Bunda ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik daraja, inson kapitali, moliyaviy resurslar, innovatsion infratuzilma va korporativ boshqaruv holati baholanadi. Ichki muhit tahlili innovatsion strategiyani amalga oshirish imkoniyatlarini belgilashga xizmat qiladi.

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

Uchinchi bosqichda innovatsion salohiyat baholanadi. Ushbu bosqich strategiyaning markaziy qismi hisoblanadi, chunki korxonaning innovatsiyalarni yaratish va joriy qilish imkoniyati aynan innovatsion salohiyat bilan belgilanadi. Muallif fikricha, innovatsion salohiyatni baholashda texnologik, kadrlar, investitsiya, raqamli infratuzilma va ilmiy-tadqiqot salohiyati kompleks hisobga olinishi lozim.

Tadqiqot natijalariga asosan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun innovatsion strategiya quyidagi yetti bosqich asosida shakllantirilishi taklif etiladi.

2-jadval

Innovatsion strategiyani shakllantirish bosqichlari¹

Bosqichlar	Asosiy vazifa	Natija
1	Tashqi muhit tahlili	Imkoniyat va xavflarni aniqlash
2	Ichki muhit tahlili	Kuchli va zaif tomonlarni baholash
3	Innovatsion salohiyatni baholash	Innovatsion imkoniyatlarni aniqlash
4	Strategiya ishlab chiqish	Ustuvor yo‘nalishlarni belgilash
5	Innovatsion loyihalar	Amalga oshirish rejasi
6	Monitoring	KPI baholash
7	Takomillashtirish	Uzluksiz innovatsion rivojlanish

2-jadvalda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion boshqaruv strategiyasini shakllantirishning asosiy bosqichlari tizimlashtirildi. Mazkur yondashuv strategik menejment, innovatsion menejment va sanoat iqtisodiyoti sohasidagi zamonaviy nazariyalarni qurilish materiallari sanoatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish asosida ishlab chiqildi.

Jadval tahlilidan ko‘rinib turibdiki, innovatsion strategiyani shakllantirish uzluksiz va o‘zaro bog‘liq jarayon bo‘lib, har bir bosqich keyingi bosqichning samarali amalga oshirilishi uchun nazariy va amaliy asos vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan strategiyani ishlab chiqishni alohida chora-tadbirlar yig‘indisi sifatida emas, balki yagona boshqaruv tizimi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Texnologik innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, Industry 4.0 texnologiyalarini joriy etish va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Investitsiya siyosati innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, zamonaviy texnologiyalarni sotib olish va raqamli infratuzilmani rivojlantirishning iqtisodiy asosini tashkil etadi.

Innovatsion muhit mavjud resurslarning shakllanishiga ta’sir qiladi. Bu resurslarga moliyaviy mablag‘lar, inson kapitali, axborot texnologiyalari, ilmiy ishlanmalar va moddiy-texnika bazasi kiradi. Resurslar asosida innovatsion salohiyat shakllanadi. Innovatsion salohiyat esa innovatsion strategiyaning asosiy poydevori hisoblanadi.

Innovatsion strategiyaning amalga oshirilishi raqamli transformatsiya jarayonlari orqali ta’minlanadi. Bu yerda Industry 4.0 texnologiyalari, sun’iy intellekt, IoT, ERP va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

transformatsiyaning natijasi sifatida ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, mahsulot sifati yaxshilanadi, energiya sarfi qisqaradi va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlik ortadi.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, "innovatsion boshqaruv strategiyasi" tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Ayrim olimlar uni innovatsiyalarni boshqarish vositasi sifatida baholasalar, boshqalari raqobat ustunligini shakllantirish mexanizmi yoki korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlovchi strategik boshqaruv tizimi sifatida izohlaydilar.

3-jadval

«Innovatsion boshqaruv strategiyasi» tushunchasiga olimlarning yondashuvlari va mualliflik ta'rifi¹

Mualliflar	Ta'rifning mazmuni	Afzal jihati	Cheklangan jihati
Henry Chesbrough	Innovatsion strategiya tashqi va ichki bilimlar hamda innovatsion g'oyalarni integratsiya qilish orqali qiymat yaratish jarayonidir.	Ochiq innovatsiyalar konsepsiyasini asoslaydi.	An'anaviy sanoat korxonalarining texnologik xususiyatlari kam yoritilgan.
Ikujiro Nonaka	Innovatsiyalar tashkilotda bilimlarni yaratish, saqlash va tarqatish jarayoni orqali shakllanadi.	Bilimlar menejmentining ahamiyati yuqori baholangan.	Moliyaviy va investitsion omillar hisobga olinmagan.
Christopher Freeman	Innovatsion strategiya milliy innovatsion tizim ishtirokchilari hamkorligiga asoslangan holda shakllanadi.	Institutsional yondashuv asoslangan.	Korxona darajasidagi boshqaruv mexanizmlari to'liq ochilmagan.
Muallif ta'rifi	Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion boshqaruv strategiyasi - bu tashqi va ichki muhit omillarini kompleks baholash, innovatsion salohiyatdan samarali foydalanish, raqamli texnologiyalar, intellektual kapital, resurs tejamkor va ekologik innovatsiyalarni strategik boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish orqali korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligi, iqtisodiy barqarorligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan kompleks boshqaruv tizimidir.	Qurilish materiallari sanoati xususiyatlari, raqamli transformatsiya, ESG tamoyillari va innovatsion salohiyat bir tizimda integratsiya qilingan.	Mazkur ta'rifni amaliyotda baholash uchun mezonlar tizimini takomillashtirish talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan jadvalda olimlar tomonidan o'rganilgan va taqdim etilayotgan yondashuvlarning tanqidiy tahlili asosida muallif tomonidan taklif etilgan ta'rifda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning texnologik, iqtisodiy va

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

tashkiliy xususiyatlari hisobga olindi. Shuningdek, raqamli transformatsiya, intellektual kapital, resurs tejamkorlik, ekologik innovatsiyalar hamda strategik boshqaruvning o'zaro integratsiyasi nazarda tutildi. Bu esa taklif etilayotgan ta'rifning nazariy jihatdan kompleks va amaliy jihatdan qo'llashga mos ekanligini ko'rsatadi.

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, sanoat tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi va barqaror rivojlanish tamoyillarining ustuvor ahamiyat kasb etishi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bunday sharoitda mazkur korxonalarning raqobatbardoshligi faqat ishlab chiqarish quvvatlari bilan emas, balki innovatsion boshqaruv tizimining samaradorligi, strategik qarorlarning asoslanganligi va tashqi muhitga tez moslasha olish qobiliyati bilan belgilanadi. Biroq tarmoq faoliyati tahlili qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

1. Innovatsion boshqaruv strategiyasining tizimli shakllanmaganligi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'plab qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsiyalar alohida loyihalar sifatida amalga oshiriladi, lekin ular korxonaning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog'lanmagan. Natijada innovatsion faoliyat uzoq muddatli maqsadlarga xizmat qilmaydi va innovatsiyalarning iqtisodiy samarasi to'liq namoyon bo'lmaydi.

2. Innovatsion salohiyatni baholash metodikasining yetarli emasligi. Amaliyotda innovatsion salohiyat asosan innovatsion mahsulotlar soni yoki investitsiyalar hajmi orqali baholanadi. Bu yondashuv korxonaning haqiqiy innovatsion imkoniyatlarini aks ettirmaydi.

3. Raqamli transformatsiya jarayonlarining sekin kechishi. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi ayrim korxonalarda ERP, MES, CRM, SCADA va IoT kabi raqamli texnologiyalar cheklangan darajada qo'llanilmoqda. Bu esa ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Dinamik qobiliyatlar nazariyasiga muvofiq raqamli texnologiyalar korxonaning tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tez moslashish qobiliyatini oshiradi.

4. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning cheklanganligi. Ko'plab korxonalarda innovatsion loyihalarning amalga oshirilmasligiga moliyaviy resurslarning yetishmasligi sabab bo'lmoqda.

Iqtisodiy nazariyada innovatsiyalar yuqori riskli investitsiyalar sifatida baholanadi. Shu bois ularni moliyalashtirishda davlat, xususiy sektor, banklar va venchur kapital institutlari ishtirok etishi muhim hisoblanadi.

5. Ilmiy muassasalar va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikning sustligi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'plab innovatsion ishlanmalar ishlab chiqarish amaliyotiga yetarli darajada tatbiq etilmaydi.

6. Inson kapitali va innovatsion madaniyatning yetarli darajada rivojlanmaganligi. Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalar inson kapitaliga tayanadi. Biroq ayrim korxonalarda xodimlarning innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi.

7. Ekologik barqarorlik va resurs tejamkorlikning yetarli darajada ta'minlanmaganligi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish energiya sig'imi yuqori

bo'lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Bu esa energiya xarajatlari va atmosferaga chiqindilar miqdorining yuqoriligiga olib keladi.

8. Innovatsion risklarni boshqarish tizimining rivojlanmaganligi. Innovatsion loyihalar yuqori darajada noaniqlik va risklar bilan bog'liq bo'lganligi sababli ularni boshqarish alohida yondashuvni talab qiladi.

Yuqorida keltirilgan muammolar tahlili shuni ko'rsatadiki, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion boshqaruv strategiyasini takomillashtirish faqat yangi texnologiyalarni joriy qilish bilan cheklanmasligi lozim. Muallifning nazariy yondashuviga ko'ra, innovatsion boshqaruv strategiyasi institutsional muhit, innovatsion salohiyat, raqamli transformatsiya, inson kapitali, ekologik barqarorlik va strategik boshqaruv mexanizmlarining o'zaro integratsiyasiga asoslangan kompleks tizim sifatida shakllantirilishi kerak.

Mazkur yondashuv qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish, investitsiya jozibadorligini kuchaytirish hamda tarmoqning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion boshqaruv strategiyasini shakllantirishning nazariy-uslubiy jihatlari kompleks yondashuv asosida tadqiq etildi. Ilmiy adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish, zamonaviy strategik boshqaruv konsepsiyalari, innovatsion iqtisodiyot nazariyalari, raqamli transformatsiya tamoyillari hamda qurilish materiallari sanoatining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish natijasida mazkur sohada innovatsion boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan bir qator nazariy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning raqobatbardoshligi endilikda faqat ishlab chiqarish quvvatlari yoki moliyaviy resurslar bilan emas, balki ularning innovatsion boshqaruv tizimi, texnologik moslashuvchanligi, raqamli rivojlanish darajasi va intellektual kapitali bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan innovatsion boshqaruv strategiyasi korxona rivojlanishining yordamchi emas, balki asosiy strategik yo'nalishi sifatida qaralishi lozim.

Tahlillar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi har bir korxonada 5-10 yillik innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va uni korporativ strategiya bilan integratsiya qilish.

2. Korxonalarda innovatsion salohiyatni baholashning yagona indikatorlar tizimini joriy etish va uni strategik qarorlar qabul qilish jarayonida qo'llash.

3. ERP, MES, IoT va sun'iy intellekt texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha sohaviy "raqamli yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish.

4. Ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari ishtirokida qurilish materiallari bo'yicha innovatsion klasterlarni rivojlantirish.

Kelgusida mazkur tadqiqot yoʻnalishini yanada rivojlantirish maqsadida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun innovatsion boshqaruv samaradorligini baholashning matematik modellarini ishlab chiqish, sunʼiy intellekt asosida strategik qarorlar qabul qilish tizimlarini takomillashtirish, innovatsion risklarni boshqarishning iqtisodiy-matematik usullarini qoʻllash hamda raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligini empirik baholash istiqbolli ilmiy tadqiqot yoʻnalishlari sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Freeman, C. (1987). Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. London: Pinter Publishers.
2. Lundvall, B.-A. (Ed.). (1992). National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. London: Pinter Publishers.
3. Nelson, R. R. (Ed.). (1993). National Innovation Systems: A Comparative Analysis. New York: Oxford University Press.
4. Gʻulomov S.S. (2020). Raqamli iqtisodiyot. Toshkent: «Fan va texnologiya».
5. Abdurahmonov Q.X. (2021). Inson kapitali iqtisodiyoti. Toshkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi».
6. Mahmudov N.M. (2018). Innovatsion iqtisodiyot va investitsiya samaradorligi. Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA».
7. Hasan, M. R., Khan, M. A., & Wuest, T. (2024). Towards Industry 5.0: A Systematic Literature Review on Sustainable and Green Composite Materials Supply Chains. arXiv.
8. Hu, Y., Jia, Q., Yao, Y., et al. (2023). Industrial Internet of Things Intelligence Empowering Smart Manufacturing: A Literature Review. arxiv.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi** rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 362/5 sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**